

## TRANSFER OF CONCEPTS IN PHRASEOLOGICAL UNITS

*Shohsanam Alimjanova*

*Doctoral student*

*National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek*

[alimjanovash97@mail.ru](mailto:alimjanovash97@mail.ru)

**Abstract:** *In this article, cognitive linguistics, “concept, “conceptosphere” and the point of view by linguists about the representation of concepts in phraseological units are analyzed.*

**Keywords:** *cognitive linguistics, concept, concepts here, phraseological units.*

## FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA KONSEPTLARNING BERILISHI

*Shohsanam Alimjanova*

*2-bosqich tayanch doktorant*

*Xorijiy filologiya fakulteti, Amaliy ingliz tili va adabiyotshunoslik kafedrası*

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti*

[alimjanovash97@mail.ru](mailto:alimjanovash97@mail.ru)

**Annotatsiya:** *Maqolada kognitiv tilshunoslik, “konsept” va “konseptosfera” atamaları hamda konseptlarning frazeologik birliklarda berilishi haqidagi tilshunoslarning fikrlar tahlil qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *kognitiv tilshunoslik, konsept, konseptosfera, frazeologik birliklar.*

Konsept lotin tilidagi “conseptus” - tushuncha so‘zidan olingan bo‘lib, XX asrning birinchi choragida faylasuf S.Askaldov tomonidan ilmiy termin sifatida muomalaga kiritilgan. Konsept til egalarining madaniyati, ma’naviyati va urf-odatları, ananalari bilan birga tasvirlovchi tushunchadan yuqoriroq turuvchi hodisadir. Konsept tuzilishi jihatdan murakkab bo‘lib, unga tushuncha qurilishiga aloqador hamma narsa daxldor va konsept tuzilishiga hamma narsa kiradi, bular uni madaniyat faktiga aylantiradi [1, 260]. U konseptning og‘zaki, konseptual va obrazli shakli haqida fikr bildirib, uni ikki turga: kognitiv va badiiy turga ajratgan. Ularning eng muhim xususiyati sifatida kognitiv konseptni birinchi o‘ringa qo‘ygan. Chunki biror so‘z yoki atamaning konseptual xususiyatlarini tahlil qilishda, dastlab, kishi ongi, idroki ishga tushadi. Kishilar bilan muloqotga kirishishda ham, kommunikativ holatni yuzaga chiqarishda

ham, nutqiy strategiya tuzishda va samaraga erishishda ham inson idrokining ahamiyati katta [2, 267-279].

Konsept mohiyatini tushunishda lingvomadaniy, psixolingvistik va lingvokognitiv yondashuvlar mavjud. Jumladan, konseptning lingvomadaniy izohini quyidagicha belgilash mumkin: inson ongidagi madaniyat “quyqasi”; olamning milliy manzarasi obrazi; til + tafakkur + madaniyat birligi; qiymat + baho.

Psixolingvistik jihatdan konsept quyidagi mazmunda kelishi V.A. Rishalnikova modeli asosida tushuntiriladi: (konsept – belgi, tushuncha, tasavvur, predmetlik ma’nosi, emotsiya, baho): hissiy-baholovchi idrok; shaxsiy mazmun; nutqiy, hissiy mazmun.

Olimlarning fikriga ko‘ra, konseptning lingvokognitiv mazmunini quyidagicha izohlanadi: mental + psixik resurs + bilim + tajriba; lisoniy ma’noning idioetnik tabiati; turli lisoniy ifodaga ega; sinonimik qatorning umumiy ma’nosi [3, 11].

Konseptlarni o‘rganishda lingvomadaniy va lingvokognitiv yondashuv o‘rtasidagi farqlarni umumlashtirib, V.I.Karasik ularni quyidagilarda ta’riflaydi: lingvokognitiv konsept individual ongdan madaniyatga yo‘nalgan bo‘ladi, lingvomadaniy konsept esa – madaniyatdan individual ongga yo‘nalgan bo‘ladi; madaniy konseptning tuzilishidagi asosiy komponent – qadriyat komponentidir [4]. Kognitiv tilshunoslikda muhim hisoblangan konseptosfera termini – bu milliy konseptlarning jamlanmasi ma’nosini anglatadi. Konsept inson ongidagi madaniyat qaymog‘i, madaniyatning inson olamiga kirishning ko‘rinishidir. Tilshunoslikda konseptlar nafaqat lesik, balki leksik frazeologik birliklar orqali ifodalanishini ham ko‘rishimiz mumkin. Karimova S.S. o‘zining “Baxt” konseptining badiiy matnda voqelanishi va tarjim muammolari” nomli filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasida madaniy konsept lingvomadaniy jamiyat ongining etnik xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi frazeologik birliklar, leksik iboralar,

paremiologik birliklar, she'riy matnlar, etiket formulalari kabi mazmunlar jamlanmasini bildirishi hamda tarjima qilinayotgan matnlar kognitiv mohiyatini saqlab qolishda eng muhim masala tarjima tilida matnni konseptual shakllantirishdir degan fikrlarni bildirgan va misollar yordamida tahlil qilgan. Uning fikriga ko'ra, konseptni insonning ruhiy olamidagi madaniyatning asosiy hujayrasi sifatida belgilash mumkin. Konseptlar shaxs ongida faqat so'zlarning lug'aviy ma'nolari asosida emas, balki milliy madaniy-tarixiy va shaxsiy tajriba asosida ham paydo bo'ladi. Ushbu tajriba qanchalik boy bo'lsa, konseptlarning chegaralari shunchalik keng va o'z navbatida, so'zning hissiy qamrovi shakllantirish imkoniyatlari shunchalik keng bo'lib, ularda konseptning barcha qirralari yaqqol namoyon bo'ladi. Konseptlar turli qismlardan iborat bo'lishi va yadro va sarhadga ega bo'lgan bilimlar, tasvirlar, g'oyalar yoki uyushmalar sohasini tashkil qilishi mumkinligini hisobga olish zarur. Ma'lum bir konsept izohini lug'atda yoki millat tilining so'z boyligida tasvirlash so'zlar orasidagi paradigmatic bog'lanishlarni o'rganishga va shu tariqa paradigmatic tahlilga asoslanadi [5, 22-23].

Yuqoridagi fikrlargan asoslangan holda, madaniy konseptlarni ifodalovchi quyidagi frazeologik birliklarni misol keltirishimiz mumkin:

O'zbekcha: *baxti ochilmoq; bir og'izdan, bag'ri keng, barmog'ini tishlamoq, balog'atga yetmoq, bosh egmoq, bosh qo'shmoq, nafsi buzuq, nazari past, quloq solmoq, sof dil*; Inglizcha: *lift the curtain, back the wrong horse, golden age, come of age, fall prey to, black sheep, dirty work, soft soap* va hokazo.

Ushbu frazeologik birliklarning ko'pchiligi polisemantik ya'ni ko'p ma'noli bo'lib, ular har bir ma'nosi bilan alohida yoki bir xil konseptlarni ifodalashi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Аскольдов С.А. Концепт и слова//Русская словесности структуре текста. Антология. М: Academia.1997. С. 260-290.
2. Аскольдов С.А. Концепт и слово. Статья. Опубликовано в книге: Русская словесность: От теории словесности к структуре текста: Антология // Под общ. ред. В.П. Нерознака. – М.: Academia, 1997. – С. 267-279.
3. Karimova S.S. “Baxt” konseptining badiiy matnda voqelanishi va tarjim muammolari. Fil. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. Buxoro – 2023. – B.11-12.
4. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.
5. Karimova S.S. “Baxt” konseptining badiiy matnda voqelanishi va tarjim muammolari. Fil. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. Buxoro – 2023. – B.22-23.
6. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent, 1978.
7. Farlex Dictionary of Idioms. (2015). Retrieved May 3 2024 from <https://idioms.thefreedictionary.com>